

Date: 23rd February-2025

ARCHA TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Vahobov Murodali Jalilovich

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi direktori

Normatov Mirzohid Abdurahmon o‘g‘li

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi Ishlab chiqarish ta‘limi ustasi

Annotatsiya: Shahar va qishloqlarda aholining yashash sharoitlarini komfort darajasiga ko‘tarish, dam olishini ta’minlash, hududdagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiqlimni yuzaga keltirish va sog‘lomlashtiruvchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali archa daraxtzorlarning roli baland. O‘zbekiston shahar va qishloqlarini zamonaviy uslubda ko‘kalamzorlashtirish - aholining hayot darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan muhim davlat tadbiri hisoblanadi. Ushbu maqolada ko‘kalamzorlashtirishning asosiy komponentlaridan biri manzarali archa daraxlari haqida, shuningdek bu daraxtlarning ko‘kalamzorlashtirishdagi ahamiyati va ularning biologiyasi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: archa, o‘simlik, daraxt, dori, xususiyat, tur, oddiy archa, g‘arb tuyasi, o‘rmon, archazor, oziq-ovqat, ignabarg, tarkib.ko‘kalamzorlashtirish, aholi, nav, iqlim.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan va himoya qilinmoqda. Bu ishlarning oddiy bir isboti sifatida Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumini misol qilishimiz mumkin. Ushbu o‘quv muassasasida ta’lim oladigan va kasb o‘rganadigan o‘quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shuningdek ushbu o‘quvchilar o‘z imkoniyat doirasidan kelib chiqan holda texnikumimiz hududida ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlariga ham o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning to‘liq ijtimoiy aloqalari imkoniyatini qiyinlashtiradi va yetarli muloqot doirasining yetishmasligi buzilishlarga olib keladi, bu esa o‘z navbatida rivojlanishda yanada ko‘proq izolyatsiya va kamchiliklarga olib keladi. Ijtimoiylashtirish jarayoni bolaning hayotiga va shunga mos ravishda uning kasbiy rivojlanishiga katta ahamiyat beradi. O‘zbekistonning iqlim sharoitida shahar va aholi yashaydigan manzillarni ko‘kalamzorlashtirish obodonlashtirishning muhim shartlaridan biridir. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda yangi texnologiyalarga asoslangan keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borilishi barobarida ko‘kalamzorlashtirish madaniyati ham shakllanmoqda.

Aholi turar joylari - shaharlar, tumanlar, qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish - bu joylarni obodonlashtirishning asosiy vositalaridan bo‘lib hisoblanadi.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd February-2025



Ko‘kalamzorlashtirish ko‘lami - aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ko‘kalamzorlashgan hududlarga aholi kelib muqim joylashadi, hamda bu joylardan ko‘chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi.

O‘zbekiston kam o‘rmonli mamlakat, shu sababdan yashil o‘simliklar bu yerdagi tabiat ko‘rinishini belgilaydi. Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo‘llar, irrigatsiya inshootlari, suv omborlarini ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng ko‘lamda olib boriladi. Ihota va tog‘ meliorativ o‘rmonchilik ulkan ahamiyatga ega, chunki suv, havo va tuproqni muhofazalashda o‘rmonning o‘rni beqiyosdir.

Ma’lumki, yer kurrasida 500 mingdan ortiq o‘simlik turlari mavjud bo‘lib, insonlar kundalik hayotiy faoliyatlarida ularning 6000 turidan foydalanadilar. Shulardan 10-12 ming turi dorivor o‘simliklar bo‘lib, 1000 dan ortiq o‘simlik turlarining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xususiyatlari tekshirilgan.

Dorivor o‘simliklar insoniyatga juda qadim zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan. O‘simliklardan nafaqat oziq-ovqat, balki biologik faol moddalar manbai sifatida keng foydalanganlar. Hozirgi paytda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tashkilotning (FAO) ma’lumotlariga qaraganda butun dunyoda 50000 dan oshiq dorivor o‘simliklar tibbiyotda davolash maqsadlarida foydalaniladi. Davolash maqsadlarida mahalliy flora vakillaridan foydalanish janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuqori, Hindistonda bu ko‘rsatgich 20% ni, Xitoyda 19% ni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlari farmakopeyalarida dorivor o‘simliklar xomashyosi asosida ishlab chiqarilgan preparatlar keng o‘rinni egallaydilar.

O‘zbekiston hududida tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o‘simliklar tarqalgan, ularning 1200 ga yaqin turlari dorivorlik xususiyatlariga ega. Hozirgi paytda Respublikamizda 112 turdag'i dorivor o‘simliklarga tibbiyotda foydalanishga rasmiy ruhsat berilgan bo‘lib, ularning 80% ni tabiiy holda o‘suvchi o‘simliklar tashkil etadi. Jumladan, Respublikamizga introduksiya qilingan ignabargli daraxt turlaridan Sarvidoshlar (*Cupressaceae*) oilasi vakillarida ham dorivorlik xususiyatlari kuzatilgan. Bu oilaga kiruvchi bir uyli yoki ikki uyli doim yashil daraxt va buta o‘simliklaridir. Oilada 20 turkum va 145 turlar bor. Bu oila vakillari bakteriyalar, zamburug‘larning rivojlanishi va o‘sishini zararsizlantirish qobiliyati nafaqat o‘simliklarning o‘ziga, balki inson tanasiga ham foydali ta’sir ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo tog‘ o‘rmonlarining asosini archazorlar tashkil etadi. Archa turlari Sarvidoshlar oilasi (*Cupressaceae*) archa turkumiga (*Juniperus*) mansub bo‘lib, asosiy o‘rmon hosil qiluvchi daraxt turi hisoblanadi. O‘zbekistonning archa o‘rmonlari asosan uch turdag'i daraxtsimon archadan: (archa mojjevelnikning mahalliy nomi) Zarafshon archasi, (*Juniperus seravschanica*), yarimsharsimon archa (*Juniperus semiglobosa*) Turkiston archasi (*Juniperus turkestanica*) iborat.

Archa o‘rmonlarining yuqori chegarasida, ya’ni alp o‘tloqlari boshlanadigan hududda slantik archa - Kazak archasi (*Juniperus sabina*) o‘sadi. Shunday qilib O‘zbekistonda tog‘ o‘rmonlarining asosini archazorlar tashkil etadi. Ularning turlari tog‘ yonbag‘irlarining turli ekspozitsiyalarida 1000 m dan 3400 metrgacha bo‘lgan dengiz

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd February-2025



sathidan balandliklarda tarqalgan. O‘zbekistonda umumiy archazorlar maydoni 190,3 ming getktarni tashkil etadi. Bu archazorlarning to‘liqliligi 0,3-0,4 dan oshmaydigan siyrak o‘rmonlardir. Archazorlar asosan Oloy, Turkiston, Farg‘ona, Chotqol, Qurama, Bobotog‘ va Boysun tog‘ tizmalarida keng tarqalgan.

Archa turlari yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka va sovuqqa bardoshli, sekin o‘suvchi va uzoq yashovchi daraxtlar (600-700 yil, 2000 yil) toifasiga kiradi.

Archazor o‘rmonlar Markaziy Osiyo tog‘larida o‘sib mintaqqa iqlimiga, tabiiy sharoitlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir ularning suvni muhofaza qiluvchi, tog‘ daryolarini suv maromini ushslashda, tuproqlarni yemirilishdan va ustki oqim ta’sirida yuvilishdan saqlashda namoyon bo‘ladi.

Qalin archazorlar o‘sadigan tog‘ daryolari havzalarida kuchli yomg‘irlardan

keyin ham tuproq ustki oqimi hosil bo‘lmaydi, ya’ni sel oqimlari paydo bo‘lishi kuzatilmaydi, demak tuproq yemirilishi ham kuzatilmaydi. Chunki archa o‘rmon shox-shabbasi bilan yog‘ingarchilikni 60-70% ushlab qolib asta- sekinlik bilan yer ostki suvlariga o‘tkazadi. Archazorlar bilan birgalikda qimmatbaho butalar -na’matak, zirk, qarag‘ay, qizil, tog‘olcha va hokazolar o‘sadi.

Oddiy archa (Можжевельник обыкновенный) – *Juniperus communis* L. Oddiy archa O‘zbekistonga introduksiya qilingan bo‘lib, Sarvidoshlar (Cupressaceae) oilasiga mansub bo‘lib, boyi 2-5 metrga yetadigan ikki uyli doim yashil ignabargli kichik daraxt. Bargi bandsiz, qattiq, nina shakilda bo‘lib, poyada uchta – uchtadan joylashgan. Archa ikki uyli bo‘lganidan otalik va onalik qubbaları ikkita o‘simlikda alohida-alohida taraqqiy etadi. Otalik qubbaları bandsiz

yumaloq-cho‘ziq, sariq rangli bo‘lib, uchtadan to‘p-to‘p joylashgan gul tevaraklaridan hamda otaliklardan (3-4 tadan) iborat. Onalik qubbaları qisqa bandli, yashil cho‘ziq tuxumsimon shaklda. Bu qubbalar uchtadan halqa shaklda joylashgan meva barglaridan iborat bo‘lib, faqat yuqorigi uchta meva bargining ichki tomonida urug‘ kurtaklar bo‘ladi. Bahorda gullari changlangandan so‘ng yuqorigi urug‘ barglari shishadi, yumshaydi va birlashib, meva hosil qiladi. Qubbalar pishib yetilganda qorayadi. Meva ikkinchi yili pishadi. Shuning uchun o‘simlikda xom va pishgan qubbalar bo‘lishi mumkin. Oddiy archa MDHning Yevropa qismi va Sibirdagi ninabargli va maydabargli aralash o‘rmonlarda, ba’zan botqoqli o‘rmonlarda tabiiy holda o‘sadi.

Mahsulotning tashqi ko‘rinishi. Tayyor mahsulot quritilgan yumaloq (ko‘ndalangiga 6-9 mm) qubbalaridan iborat. Qubba ichi g‘ovak bo‘lib, yashil-qo‘ng‘ir rangli, tashqi tomoni silliq, yaltiroq, qo‘ng‘ir yoki qora binafsha rangli, yuqori qismida uch nurli juyagi (uchta meva bargchasi birlashib, qubba hosil qilgan joyi), pastki qismida esa bandi bo‘ladi. Qubba ichida (yumshoq qismida) qattiq po‘stli uchta urug‘ joylashgan. Mahsulotning mazasi yoqimli, shirin va o‘ziga xos xushboy hidi bor. XI DF ga ko‘ra mahsulot namligi 20% (bundan oshib ketsa, sifati buziladi), umumiy kuli 5%, 10% li xlorid kislotada erimaydigan kuli 0.5%, pishib yetilmagan va quritish vaqtida rangi o‘zgarib qolgan qubbalar 10% (shu jumladan, yashil rangli mevalar 0.5%), archa bargi va boshqa o‘simliklar mevasi aralashmasi 0.5%, organik aralashmalar 0.5% va mineral

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd February-2025

aralashmalar 0.5% dan oshmasligi kerak. Poroshok holidagi mahsulot namligi 124%, teshigining diametri 1 mm li elakdan o'tadigan mayda qismlar 5% dan ko'p bo'lmasligi lozim.

Qubbalarda bo'ladigan badbo'y qandala mahsulot sifatini buzadi, mahsulot yaxshi quritilsa, qandalalar o'ladi.

Kimyoviy tarkibi. Qubba tarkibida 0.5-2% efir moyi, 40% qand, 9.5% gacha smola, bo'yoq va pektin moddalar, yog', olma, chumoli va sirka kislotalari bo'ladi. XI DF ga ko'ra qubba tarkibida 0.5% efir moyi bo'lishi kerak. Bu moy tez

uchuvchan, tiniq, rangsiz yoki och sariq suyuqlik bo'lib, o'ziga xos hidi bo'ladi. Efir moyi tarkibida pinen, kamfen, sabinen, terpinen, fellandren, barneol, kadinen, yuniper kamfora bo'lib, o'ziga xos hidi bo'ladi. Archa bargi tarkibida 0.18% efir moyi va 266 mg/% vitamin C, poyasi tarkibida 0.25% efir moyi, po'stlog'i tarkibida esa 8% gacha oshlovchi moddalar bo'ladi.

Ishlatilishi. Qubba preparatlari siyidik haydovchi, siyidik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi va ovqat hazmiga yordam beruvchi dori sifatida ishlatiladi. Efir moyining eritmasi va surtmasi bod kasalliklarida teriga surtiladi. Bu moy bakteritsid xususiyatga ega. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'sirga ega bo'lganidan trixomanad kolpitda qo'llaniladi. Qubba oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Damlama, efir moyining spirtdagi eritmasi va surtmasi. Qubba siyidik haydaydigan yig'malar choylar tarkibiga kiradi.

G'arb tuyasi (Түя западная)-*Thuja occidentalis*. G'arb tuyasi O'zbekistonga introduksiya qilingan bo'lib, Sarvidoshlar (*Cupressaceae*) oilasiga mansub bo'lib, boyi 10-12 metr, diametri 1 metr keladigan daraxt, ayrim turlarining balandligi 30 metrgacha ham yetadi. Shoxlari gorizontal yoki yuqoriga yo'nalgan, novdalarini ingichka, egiluvchan, qattiq, asosiy o'qdan uzoqlashmagan holda shoxlangan. Kurtagi ignabargiga yashiringan. Ignabargi tangachali, qarama-qarshi 4 tadan g'ujbarg bo'lib joylashgan, asosiy o'qdagi igna bargi bir necha yildan so'ng nobud bo'ladi va tangacha shaklida daraxtda saqlanadi. Ignabarglari yon novdalarida mayda bo'lib, nobud bo'ladi va tangachasi bilan to'kilib ketdi.

Tuya (*Thuja occidentalis* L.) ning vatani Shimoliy Amerika bo'lib, shuningdek, Sibir va Uzoq Sharqda uchraydi. Yaponiya Xonda orollarida 1000-1800 metr balandlikdagi o'rmon zonalari tabiiy holda tarqalgan. Tuya manzarali daraxt sifatida yuqori ekologik chidamliligi, atmosfera havosini tozalash xususiyati, kasalliklarga chidamliligi bilan juda yaxshi qadrlanadi.

Fitonsidlar ko'p bo'lgan o'simliklar orasida go'zal, doim yashil daraxt - Tuya (*Thuja occidentalis*) alohida o'rin tutadi. Uning shifobaxsh xususiyatlari uni turli kasalliklarni davolash uchun ishlatishga imkon beradi. Ko'pgina Yevropa mamlakatlari sil kasalligi davolanadigan shifoxonalarini bog'dorchilikda G'arb tuyasidan foydalanadilar. G'arb tuyasinig barcha turlari yuqori fitonsidlikka ega.

O'simlik yog'ochida faol moddalar mavjud: aromodendrin, toksifollin va yoqimli hidli sarg'ish efir moyi. Ushbu moy G'arb tuyasining barglaridan distirlash orqali ishlab

Date: 23rd February-2025

chiqariladi. Moy tarkibida ko‘p miqdorda spirt, qatron, taninlar, zedrol, pinin, kardifilen, fidren va pinen mavjud. Bunday boy tarkibi tufayli G‘arb tuyasi yallig‘lanishga qarshi, antibakterial va antitumor xususiyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.Jabxarova. Oddiy archa (*juniperus communis* l.) va g‘arb tuyasining (*thuja occidentalis* l.) dorivorlik xususiyatlari. Agro Inform. 2021
2. D.Omonov va boshqalar. Ignabargli daraxtlarning ayrim turlarini ko‘chatlarini yetishtirishda mineral o‘g‘itlarning me’yorlari
3. Dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash boyicha yo‘riqnomalar (tuzuvchilar: B.Y.To‘xtayev, T.X.Mahkamov, M.O‘.Allayarovlar). Toshkent, 2015.
4. Berdiyev E.T., Xakimova M.X., Maxmudova G.B. O‘rmon dorivor o‘simliklari. – Toshkent 2016.
5. Qayumov A.K., Berdiyev E.T., Hamroyev H.F., Turdiyev S.A. Dendrologiya. “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014.